

## TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI EKSPORT FAOLIYATIDA XALQARO STANDARTLARINI JORIY ETISHNING XORIJ TAJRIBASI

**Oqboyev Alisher Rasuljanovich**

*Namangan davlat texnika universiteti*

*“Iqtisodiyot” kafedrasi dotsenti*

*e-mail: [o.r.alisher@mail.ru](mailto:o.r.alisher@mail.ru)*

*+998939460004*

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatida xalqaro standartlarni rivojlangan davlatlar tajribasi asosida joriy etish amaliyotlari tadqiq etilgan. Xalqaro standartlarni joriy etish bo'yicha ilg'or tajribalarni o'rganib, mamlakatimizdagi imkoniyat va xususiyatlarni xisobga olgan xolda qo'llash, shu tajribalar asosida xalqaro standartlarni joriy etishni rivojlantirish va rag'batlantirish bo'yicha nazariy va amaliy takliflar ishlab chiqilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Tadbirkorlik sub'ekti, xalqaro standartlar, sertifikatlashtirish, eksport, mahsulot sifati, raqobatbardoshlik, moliyaviy ko'mak, konsalting xizmatlari, diversifikatsiya, ISO 9001, OEKO-TEX, GOTS, SA8000.*

### I. KIRISH

Ma'lumki, tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatida xalqaro standartlarni joriy etish eksport qilinayotgan mahsulotlarning sifati, xavfsizligi va ekologik talablarga muvofiqligini kafolatlaydi. Xorijiy tajribani o'rganish, eksport hajmini oshirishga yo'naltirilgan samarali strategik yondashuvlarni o'zlashtirishga hamda iste'molchilar ishonchini qozonibish orqali Yevropa, AQSh, Yaponiya va boshqa talabchan bozorlarga kirish imkonini yaratadi.

Xorijiy davlatlarning muvaffaqiyatli tajribasini o'rganish, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish va eksport bozorlarida ustunlikni ta'minlaydi. Shuningdek mahsulot ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtirish, qo'shilgan qiymatli mahsulotlarni ko'paytirish va yuqori texnologik darajadagi mahsulotlar ishlab chiqarish imkoniyatini beradi. Xalqaro standartlarga ega tadbirkorlik sub'ektlari xalqaro kompaniyalar bilan hamkorlik aloqalarini o'rnatish imkoniyatiga ega bo'ladi, xorijiy tajriba shunday hamkorliklar uchun zarur sharoitlarni yaratishda muhim ahamiyatga ega. Tadbirkorlik sub'ektlari eksport faoliyatini rivojlantirishda xalqaro standartlarni joriy etishning xorijiy tajribasi tadqiq qilish yangi bozorlarga kirish, raqobatbardoshlikni oshirish, mahsulot sifati va qo'shilgan qiymatini oshirish hamda xalqaro hamkorlikni rivojlantirish uchun muhim hisobalanadi. O'zbekistonda tadbirkorlik sub'ektlari uchun xorijiy tajribani o'zlashtirish, mahsulotlarni xalqaro standartlarga moslashtirish va eksport imkoniyatlarini kengaytirish muhim qadam hisoblanadi.

### I. ADABIYOTLAR SHARHI

Tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatiga xalqaro standartlarni joriy etish va uning eksportga ta'siri bo'yicha bir qator olimlar va tadqiqotchilar shug'ullanganlar. Bunda ular xalqaro standartlarni joriy etilishi tadbirkorlik sub'ektlari eksport faoliyatiga qay darajada ta'sir qo'rsatishi bo'yicha tadqiqotlar olib borishgan. Jumladan, Philip S. Schelling xalqaro standartlarning ishlab chiqarish jarayonidagi ahamiyatini o'rgangan va uning fikricha, ISO kabi xalqaro standartlar faoliyatni ko'pgina sohalarini tartibga

solib, ishlab chiqaruvchilarning eksportga bo‘lgan qodirligini oshiradi. U xalqaro standartlarning eksport faoliyatini takomillashtirish uchun muhim omil ekanini ta’kidlaydi[1].

John Swonn xalqaro standartlar va sifatni ta’minlash tizimlarining eksportga ta’siriga oid tadqiqotlar olib borgan. Uning fikricha, xalqaro standartlarni joriy etish korxonalariga global bozorlarda barqaror o‘rin topishga yordam beradi va bu esa eksport hajmini oshirish uchun muhimdir[2]<sup>7</sup>. Gerald Mars xalqaro standartlarning etika va sifat masalalariga ta’siri haqida shug‘ullangan. U xalqaro standartlarni joriy etish orqali ishlab chiqaruvchilar mijozlar ishonchini oshiradi va tashqi bozorlarda barqaror o‘rin egallashga imkon beradi. Bu esa eksport imkoniyatlarini kengaytiradi[3].

Richard H. Wittman xalqaro standartlarning eksportga ta’sirini tadqiqi etishi natijasida, xalqaro standartlar mahsulot sifatini oshiradi va tadbirkorlik sub’ektlariga mijozlar talablariga javob berishiga yordam beradi, bu esa eksport faoliyatini yaxshilaydi. U xalqaro standartlarning joriy etilishi savdo to‘siqlarini engish va xalqaro bozordagi raqobatbardoshlikni oshirish uchun zarur deb hisoblaydi[4]. Alan Sayks xalqaro standartlarning eksportga ta’siriga oid tadqiqotlarida, ularning joriy etilishi, ayniqsa, rivojlangan mamlakatlarning tashqi savdosi uchun muhim ekanini ta’kidlaydi. Sayksning fikricha, xalqaro standartlarning tadbiq etilishi eksportga yo‘naltirilgan tijorat siyosatlarini samarali amalga oshirish va bozorlarga kirishni osonlashtiradi[5].

### III. NATIJALAR

Olib borilayotgan tadqiqot ishida tadqiqot ob’ekti to‘qimachilik tarmog‘idagi tadbirkorlik sub’ektlari bo‘lganligi sababli, xalqaro standartlarni joriy etishdagi ilg‘or tajribalar dunyodagi eng yirik to‘qimachilik mahsulotlari eksportchilari bo‘lgan davlatlar tajribasi asosda o‘rganildi. Jahon tajribasidan ma’lumki, to‘qimachilik mahsulotlari eksporti har bir davlatning iqtisodiyotining muhim tarmoqlaridan biri hisoblanadi. To‘qimachilik mahsulotlari eksportini rivojlantirish mamlakatlar jumaldan O‘zbekiston uchun ham asosiy valyuta tushum manbai hisoblanadi. To‘qimachilik mahsulotlari eksportini oshirishi mamlakat iqtisodiyotini diversifikatsiya qilishga, eksportdan tushadigan daromadlarni oshirishga va xalqaro savdoda raqobatbardoshlikni kuchaytirishga imkon yaratadi.

To‘qimachilik mahsulotlari eksportini rivojlanishi infratuzilmani rivojlantirishga, ijtimoiy sharoitlarni yaxshilashga va aholining turmush darajasini oshirishga, ichki bozordagi talab va taklifni muvozanatlashtirishga va mamlakatning tashqi savdodagi o‘rnini mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu orqali iqtisodiy barqarorlikka erishiladi, iqtisodiy manfaatlarni ta’minlaydi va jahon bozoridagi talab va sifat standartlariga javob berish orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

To‘qimachilik mahsulotlari eksportini rivojlantirishda yetakchi davlatlarning tajribasini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Dunyo bozorida raqobatbardoshlikni

---

<sup>7</sup>Swonn, J. (2006). Global Standards and Export Performance: A Comprehensive Study. Journal of International Economics.

ta'minlash va eksport hajmini oshirish uchun xalqaro tajribadan foydalanish va muvaffaqiyatli strategiyalarni o'zlashtirish zarur.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2024-yilda to'qimachilik mahsulotlari eksporti bo'yicha yetakchi 10 ta davlat Xitoy, Bangladesh, Vetnam, Hindiston, Turkiya, Germaniya, AQSh, Italiya, Meksika va Indoneziya hisoblanadi. Ushbu davlatlarning eksportdagi muvaffaqiyatining asosiy kaliti xalqaro standartlarni faol joriy etish, sifatni ta'minlash, iste'molchilar ishonchini qozonish va barqaror amaliyotlarni yo'lga qo'yish bilan bog'liq.

1. Xalqaro standartlarni joriy etish va sifatni ta'minlash. Xalqaro bozorlarda raqobatbardoshlikni oshirish uchun yetakchi davlatlar mahsulot sifatini xalqaro standartlar asosida nazorat qiladi. Masalan, Xitoy va Hindiston ISO 9001, OEKO-TEX, GOTS (Global Organic Textile Standard) kabi sertifikatlariga katta e'tibor qaratib, mahsulotlarini global bozorga moslashtiradi. Germaniya va Italiya esa ekologik toza ishlab chiqarish standartlariga amal qilib, yuqori sifatli premium toifasidagi mahsulotlar eksportini yo'lga qo'ygan.

2. Iste'molchilar ishonchini qozonish. Yuqori sifat, ekologik toza materiallar va innovatsion dizaynlar orqali yetakchi davlatlar xalqaro bozorlar uchun ishonchli yetkazib beruvchi maqomini qo'lga kiritgan. Masalan, Bangladesh o'zining arzon, lekin sifatli to'qimachilik mahsulotlari bilan dunyo bozorida yetakchi o'rinlardan birini egallab kelmoqda. Vetnam esa innovatsion dizayn va moslashuvchan ishlab chiqarish jarayonlari orqali global brendlar bilan hamkorlikni kuchaytirgan.

3. Barqaror amaliyotlar va yashil ishlab chiqarish. Ekologik toza ishlab chiqarish jarayonlari so'nggi yillarda to'qimachilik eksportini rivojlantirishda muhim omil bo'lib qolmoqda. Masalan, Turkiya va Indoneziya ekologik toza paxta yetishtirish va qayta ishlash jarayonlarini joriy etgan. Germaniya va AQSh esa qayta ishlangan materiallardan foydalanish va uglerod chiqindilarini kamaytirish bo'yicha qat'iy choralar ko'rmoqda. Bu esa ushbu mamlakatlarning barqaror rivojlanish tamoyillariga asoslangan holda eksport imkoniyatlarini kengaytirishiga xizmat qilmoqda.

4. Innovatsiyalar va texnologik rivojlanish. To'qimachilik mahsulotlari eksportini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalarni joriy etish muhim ahamiyatga ega. Masalan, Xitoy sun'iy intellekt, avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish tizimlari va aqlli tikuv texnologiyalaridan foydalanish orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirmoqda. AQSh va Yevropa davlatlari esa to'qimachilik sanoatida raqamlashtirish jarayonlarini keng joriy qilib, mahsulot dizayni va ishlab chiqarish jarayonlarini tezkor va moslashuvchan qilishga erishmoqda.

5. Muvaffaqiyatli eksport strategiyalari va davlat qo'llovi. Ko'plab yetakchi davlatlar eksportni rivojlantirish uchun hukumat tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan maxsus dasturlarni yo'lga qo'ygan. Masalan, Hindiston va Bangladesh eksportni rag'batlantirish maqsadida soliq imtiyozlari va davlat subsidiyalaridan foydalanadi. Turkiya esa to'qimachilik mahsulotlarining xalqaro reklamasini kuchaytirish uchun davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan eksport dasturlarini amalga oshiradi.

To'qimachilik mahsulotlari eksportini rivojlantirishda xalqaro standartlarni joriy etish, sifatni oshirish, iste'molchilar ishonchini qozonish, barqaror ishlab chiqarish amaliyotlarini joriy qilish va innovatsion texnologiyalardan foydalanish muhim rol

o‘ynaydi. O‘zbekiston uchun ham ushbu tajribalarni o‘rganish va ularni milliy sanoatga moslashtirish eksport salohiyatini oshirish va xalqaro bozorlarning yangi segmentlariga chiqish imkonini yaratadi.

Shuni aytish mumkinki to‘qimachilik mahsulotlari eksporti bo‘yicha yetakchi davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, xalqaro standartlarni joriy etish va sifatni oshirish eksport hajmini oshirishning asosiy garovi bo‘lib qolmoqda (1-jadval)[6].

1-jadval.

**To‘qimachilik mahsulotlari eksporti bo‘yicha TOP 10 davlatlarning xalqaro standartlarni joriy etish tajribasi**

№	Davlatlar	Joriy etigan xalqaro standartlari	Eksport bozorlari soni	Diversifika tsiya darajasi
1.	Xitoy	ISO 9001, OEKO-TEX, GOTS	220	yuqori
2.	Bangladesh	ISO 9001, GOTS, WRAP	150	o‘rta
3.	Vetnam	ISO 9001, OEKO-TEX, GOTS	120	o‘rta
4.	Hindiston	ISO 14001, GOTS, OEKO-TEX	180	yuqori
5.	Turkiya	OEKO-TEX, ISO 9001, BSCI	150	o‘rta
6.	Italiya	ISO 9001, OEKO-TEX, BSCI	170	yuqori
7.	Germaniya	ISO 9001, OEKO-TEX, GOTS	190	yuqori
8.	AQSh	ISO 9001, OEKO-TEX, GOTS	200	yuqori
9.	Pokiston	ISO 9001, Oeko-Tex, GOTS	140	o‘rta
10.	Ispaniya	ISO 9001, Oeko-Tex, SA8000	130	o‘rta

**II. MUXOKAMA**

Xalqaro standartlarni joriy Dunyo bo‘yicha to‘qimachilik mahsulotlari eksport hajmi bo‘yicha eng yuqori 10 ta davlatlarning tajribalari bilan tanishamiz:

**Xitoy** dunyodagi eng yirik to‘qimachilik mahsulotlari eksportchisi bo‘lib, u global bozorning katta qismini egallaydi. hamda bir necha yillar davomida narx jihatidan raqobatbardoshligi bilan ajralib turadi. Yirik ishlab chiqarish quvvatlari va texnologik taraqqiyot orqali Xitoy xalqaro bozorda yetakchi bo‘lib qolmoqda.

*Xitoyning to‘qimachilik mahsulotlari eksporti bo‘yicha yetakchiligining asosiy omillarida biri bu ISO, OEKO-TEX, GOTS va boshqa xalqaro standartlarni faol joriy etish va sertifikatlash orqali sifatni oshirib borayotganligidir. Shunigdek Xitoy kuchli logistika va transport infratuzilmasiga ham ega.*

2. **Bangladesh** dunyodagi eng yirik kiyim-kechak ishlab chiqaruvchi davlatlardan biri xisobalanadi. Bangladesh to‘qimachilik mahsulotlarini Yevropaga eksport qilish bo‘yicha yetakchi davlat hisoblanadi. Bu mamlakat eksport hajmida yuqori darajadagi korxonalari va arzon ishchi kuchiga ega.

Bangladesh ham eksportda ISO, WRAP va GOTS kabi xalqaro standartlarni joriy etish va sertifikatlash orqali sifatni oshirishga va barqaror amaliyotlar orqali xaridorlar orasida ishonchni oshirishga alohida e‘tibor qaratadi.

3. **Vetnam** to‘qimachilik va kiyim-kechak sanoatida dunyodagi eng yirik eksportchilardan biri. Jahon to‘qimachilik eksportida Vetnam asosan ishlab chiqarishning arzonligi, yuqori sifatli mahsulotlari va tez yetkazib berish tizimi orqali ajralib turadi. Vetnam mahsulotlari asosan AQSh, Yevropa Ittifoqi va Yaponiyaga



eksport qilinadi. Vetnamning to‘qimachilik sanoati zamonaviy texnologiyalar va yuqori sifatli mehnat kuchi bilan ta‘minlangan. Bu mamlakat asosan ishlab chiqarish va kiyim-kechak tarmoqlarida maxsus rivojlanishga e‘tibor qaratmoqda.

Vetnam eksport hajmini oshirish uchun xalqaro standartlarga mos mahsulotlar ishlab chiqarishga alohida e‘tibor qaratib, OEKO-TEX, GOTS va ISO 9001 kabi standartlarni keng qo‘llaydi. To‘qimachilik sanoatida xalqaro standartlarni joriy etish va sertifikatlashtirish orqali sifatni oshirish va yangi bozorlarga kirish asosiy muvaffaqiyat kaliti xisoblanadi.

4. Hindiston jahon paxta va ipak to‘qimachilik mahsulotlari eksportida yetakchi o‘rinda turadi. Hindistonning to‘qimachilik va kiyim-kechak mahsulotlari dunyo bozorida yuqori talabga ega. Asosiy eksport yo‘nalishlari Yevropa Ittifoqi, AQSh, Yaponiya va Osiyo mamlakatlariga yo‘naltirilgan. Xindiston nafaqat tayyor kiyimlar, balki yuqori sifatli tabiiy paxta va ipak mahsulotlarini ham eksport qiladi. Bu mamlakatning ishlab chiqarish quvvati va mehnat kuchi arzonligi uning global bozordagi raqobatbardoshligini ta‘minlaydi.

Hindiston eksport strategiyasida ekologik toza mahsulotlarni ishlab chiqarishga e‘tibor qaratmoqda. ISO 14001, **GOTS** (Global Organic Textile Standard) va **OEKO-TEX** sertifikatlari orqali tabiiy, organik mahsulotlar ishlab chiqarilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek to‘qimachilik mahsulotlari turini kengaytirish va yangi bozorlar uchun moslashtirish hamda xalqaro sifat standartlariga muvofiq ishlab chiqarish jarayonlari tashkil etish ham asosiy yo‘nalishlaridan biri xisobalanadi.

5. Turkiya ham to‘qimachilik mahsulotlari eksportida muhim o‘rin tutadi. Turkiyaning strategik joylashuvi, sifatli mahsulotlari va tez yetkazib berish imkoniyati Yevropa va AQSh bozorlarida to‘qimachilik mahsulotlariga talab katta bo‘lishiga yordam beradi. Turkiya Yevropa va Osiyo bozorlariga yaqinligi sababli innovatsion va sifatli mahsulotlarini o‘z vaqtida yetkazib beradi.

Shuningdek Turkiyada ham sifatli va xavfsiz mahsulotlar ishlab chiqarishda OEKO-TEX, ISO 9001, BSCI kabi xalqaro standartlarni joriy etishga va sertifikatlashtirishga katta e‘tibor qaratiladi.

6. Italiya to‘qimachilik sanoati dunyodagi yuqori sifatli, dizaynerlik va yuqori texnologiyali mahsulotlari bilan mashhur. Italiyaning tayyor kiyim va to‘qimachilik mahsulotlari Yevropaga va boshqa yirik bozorlarga keng eksport qilinadi. Italiyaning to‘qimachilik sanoati yuqori moda, luks segmenti va individual dizayniga e‘tibor qaratadi. Buyuk brendlar va moda uylari orqali Italiya mahsulotlari dunyo miqyosida tan olingan va katta talabga ega.

Italiya sifatga yuqori talab qo‘yadi. Bu mamlakat ISO 9001, OEKO-TEX, BSCI va ekologik xavfsizlikka oid boshqa standartlarni joriy qilishda jahonda yetakchi hisoblanadi. Italiya mahsulotlari yuqori sifat va zamonaviy dizayn bilan jahon bozorlarida o‘z o‘rnini mustahkamlab kelmoqda.

7. Germaniya Yevropadagi eng yirik to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqaruvchi va eksport qiluvchi mamlakatlardan biri. Mamlakat, asosan, texnik to‘qimachilik mahsulotlari, yuqori sifatli materiallar va sanoatda ishlatiladigan to‘qimachilik mahsulotlari bilan tanilgan. Germaniyaning to‘qimachilik sanoati faqat kiyim-kechak bilan cheklanmay, texnik to‘qimachilik (avtomobil, qurilish, tibbiyot va boshqa

sohalarda ishlatiladigan to‘qimalar) bilan ham mashhur. Bu mahsulotlar xalqaro bozorda yuqori talabga ega.

Germaniyada ishlab chiqariladigan mahsulotlar uchun sifatga katta e‘tibor qaratilgan. Korxonalar ISO 9001, OEKO-TEX, GOTS va boshqa xalqaro standartlarga muvofiq ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘ygan. Germaniyaning asosiy eksport bozorlari Yevropa Ittifoqi, AQSh va Osiyo mamlakatlari hisoblanadi. Uning to‘qimachilik mahsulotlari sanoatdagi yuqori texnologik talablarga javob beradi.

8. AQSh to‘qimachilik mahsulotlari uchun eng yirik iste‘molchilardan biri. Mamlakat to‘qimachilik mahsulotlarini eksport qilish bilan bir qatorda, jahondagi eng yirik importchilardan biri ham hisoblanadi. AQShda ichki ishlab chiqarish hajmi yuqori bo‘lsa-da, asosan Xitoy, Vetnam va Bangladeshdan import qilinadigan kiyim-kechak va to‘qimachilik mahsulotlari katta o‘rin tutadi. AQShning to‘qimachilik sanoati texnik to‘qimalar, yuqori texnologiyali matolar, ekologik mahsulotlar va innovatsion materiallar ishlab chiqarish sohasida yetakchi o‘rinda turadi. Avtomobil, aerokosmik, tibbiy va qurilish sohasidagi texnik to‘qimachilik mahsulotlari dunyo bo‘ylab eksport qilinadi.

AQShda sifat va ekologik standartlar katta ahamiyatga ega. Korxonalar ISO, GOTS va boshqa xalqaro standartlarga muvofiq ishlab chiqarishni amalga oshiradi. Ekologik toza materiallar va qayta ishlangan mahsulotlarga bo‘lgan talab ortib bormoqda.

9. Pokiston dunyodagi yirik to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqaruvchi va eksport qiluvchi mamlakatlardan biri hisoblanadi. To‘qimachilik mahsulotlari mamlakatning umumiy eksport hajmining 60% dan ortiq qismini tashkil qiladi. Pokiston asosan paxta iplari va matolar, tayyor kiyim-kechaklar, uy-ro‘zg‘or to‘qimachilik mahsulotlari, jinsi va trikotaj kiyimlarni eksport qiladi.

Pokistonning to‘qimachilik mahsulotlarini Germaniya, Italiya, Ispaniya, Amerika Qo‘shma Shtatlari, Saudiya Arabistoni, Birlashgan Arab Amirliklari va Xitoyga eksport qiladi. Pokiston ishchi kuchi nisbatan arzon, bu mahsulotlarning tannarxini pasaytirishga yordam beradi. Pokiston dunyodagi eng yuqori sifatli paxta ishlab chiqaruvchilardan biri. Bu uning to‘qimachilik mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshiradi. Shuningdek Pokistonda GOTS, Oeko-Tex va BSCI kabi standartlarni joriy etish orqali mahsulotlarning xalqaro bozor talablariga javob berishi ta‘minlanadi.

10. Ispaniya - asosan kiyim-kechak va moda to‘qimachilik mahsulotlarini eksport qiluvchi mamlakat sifatida tanilgan. Mamlakatda bir qancha mashhur to‘qimachilik brendlari mavjud bo‘lib, ular jahon bozorlarida yuqori raqobatbardoshlikka ega. Ispaniyaning moda sohasidagi yetakchiligi to‘qimachilik sanoatiga katta ta‘sir ko‘rsatgan. Zara, Mango, Desigual kabi brendlar xalqaro bozorlarda Ispaniyaning yuqori sifatli kiyimlarini sotuvga chiqaradi.

Ispaniyaning to‘qimachilik mahsulotlari Yevropaning boshqa mamlakatlariga ham eksport qilinadi. Ispaniya ishlab chiqaruvchilariga jahon miqyosidagi raqobatga moslashishda ISO 9001, Oeko-Tex, SA8000 kabi standartlar joriy etilgan.

Shuni aytish mumkinki to‘qimachilik mahsulotlari eksporti bo‘yicha yetakchi davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, xalqaro standartlarni joriy etish va sifatni oshirish eksport hajmini oshirishning asosiy garovi bo‘lib qolmoqda.

Shuni aytish mumkinki to‘qimachilik mahsulotlari eksporti bo‘yicha yetakchi davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, xalqaro standartlarni joriy etish va sifatni oshirish eksport hajmini oshirishning asosiy garovi bo‘lib qolmoqda.

O‘zbekiston ham to‘qimachilik mahsulotlari eksportida katta imkoniyatlarga ega bo‘lib, kalava ip, mato va tayyor mahsulotlar, shuningdek, organik to‘qimachilik mahsulotlari bo‘yicha katta eksport salohiyatga ega. Shu nuqtai nazaridan mamlakatimizda to‘qimachilik mahsulotlari eksportini oshirishda xalqaro talablar asosida mahsulotlar ishlab chiqarish, xalqaro standartlarni joriy etish va sertifikatlashtirish orqali sifatni oshirish hamda yangi bozorlarga kirish muhim vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

To‘qimachilik mahsulotlarini eksporti bo‘yicha yetakchi davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, xalqaro standartlarni joriy etish orqali eksportni rivojlantirishda bir qator cho‘ra-tadbirlar va usullarda foydalangan. Quyida har bir davlatning bu jarayonda qo‘llagan asosiy yondashuvlari va usullari keltirilgan[7]:

Xitoyda davlat tarmoq korxonalariga xalqaro standartlarni joriy etish bo‘yicha majburiy talablarni belgilagan. Tadbirkorlik sub’ektlari faoliyatida xalqaro standartlarni joriy etishni rivojlantirish uchun zamonaviy texnologiyalarni o‘rnatish va avtomatlashtirishga katta e‘tibor qaratilgan. Shuningdek maxsus iqtisodiy zonalar (SEZ) yaratilgan, bu yerda tadbirkorlik sub’ektlari xalqaro standartlarga mos mahsulotlar ishlab chiqargan.

Bangladesh tajribasini ko‘radigan bo‘lsak, xorijiy kompaniyalar vakillari Bangladeshda to‘qimachilik korxonalarini standartlarga moslashtirish uchun qo‘shma korxonalarini tashkil etgan. Xalqaro talablarga javob beradigan mahsulot ishlab chiqarish uchun ishchi kuchi malakasini oshirish dasturlari tashkil etilgan.

Vetnam Yevropa Ittifoqi va AQSh bilan imzolangan erkin savdo bitimlari doirasida xalqaro standartlarga mos mahsulot ishlab chiqarish talab qilingan. Tadbirkorlik sub’ektlari uchun xalqaro sertifikat olish bo‘yicha maslahat xizmatlari ko‘rsatuvchi tashkilotlar faoliyat yuritgan. Shuningdek davlat tomonidan sertifikat olish jarayonlariga subsidiyalar ajratilgan.

Hindistonda faoliyat olib borayotgan tadbirkorlik sub’ektlarining xalqaro standartlarga moslashtirish uchun mahalliy va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda tadbirlar tashkil etilgan. Tadbirkorlarga qulaylik yaratish maqsadida maxsus xalqaro sertifikat markazlari tashkil etilgan.

Turkiya tajribasida tadbirkorlik sub’ektlari xalqaro ko‘rgazmalarda ishtirok etib, standartlarga mos mahsulotlarni namoyish qilgan. Shuningdek, xalqaro standartlarga ega mahsulot ishlab chiqargan korxonalariga soliq imtiyozlari va moliyaviy ko‘maklar ko‘rsatilgan. Italiya hukumati standartlar joriy etishda moliyaviy yordam ko‘rsatgan. Germaniyada korxonalar xalqaro standartlarga moslashish uchun birlashgan.

AQShda korxonalarini modernizatsiya qilish uchun davlat tomonidan moliyaviy yordam ko‘rsatilgan. Yangi standartlarni joriy etish uchun ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan.

Pokiston xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda sertifikatlash jarayonlarini soddalashtirgan. Yangi bozorlarga chiqish uchun mahsulotlar sifatiga e'tibor berilgan.

### III. XULOSALAR

Rivojlangan davlatlar tajribasidan kelib chiqib, O'zbekistonda xalqaro standartlarni joriy etish va eksport salohiyatini oshirish bo'yicha quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

Xalqaro standartlarni joriy etish uchun soliq imtiyozlari va moliyaviy subsidiyalarni ajratish, eksport qiluvchi korxonalariga grant va kreditlarni kengaytirish;

O'zbekistonda xalqaro standartlarga muvofiq sertifikat berish markazlarini tashkil etish va ularni xalqaro tashkilotlar bilan akkreditatsiyadan o'tkazish;

**tadbirkorlik sub'ektlariga** xalqaro standartlarni joriy etishda maslahat va texnik yordam ko'rsatuvchi tashkilotlarni faollashtirish va maxsus o'quv dasturlarini ishlab chiqish;

Yevropa, AQSh va Yaponiya kabi yuqori talabli bozorlarga chiqish uchun standartlarga e'tibor qaratish, yangi eksport strategiyalarini ishlab chiqish;

barqaror ishlab chiqarish tamoyillariga amal qilgan holda ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantirish va xalqaro "yashil" sertifikatlariga ega bo'lish;

xalqaro bozor talablariga mos keluvchi innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy etish va avtomatlashtirish jarayonlarini kuchaytirish;

xalqaro standartlar bo'yicha malakali mutaxassislarni tayyorlash maqsadida oliy ta'lim muassasalari va kasb-hunar markazlarida maxsus kurslar tashkil etish.

Yuqoridagilardan shuni xulosa qilish mumkinki, to'qimachilik mahsulotlari eksportini rivojlantirishda xalqaro standartlarni joriy etish, sifatni oshirish, iste'molchilar ishonchini qozonish, barqaror ishlab chiqarish amaliyotlarini joriy qilish va innovatsion texnologiyalardan foydalanish muhim rol o'ynaydi. O'zbekiston uchun ham ushbu tajribalarni o'rganish va ularni milliy sanoatga moslashtirish eksport salohiyatini oshirish va xalqaro bozorlarning yangi segmentlariga chiqish imkonini yaratadi.

### IV. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Schelling, P. S. International Standards and Their Impact on Export Activities // Business Strategy Review. 1993.
2. Swonn, J. Global Standards and Export Performance: A Comprehensive Study // Journal of International Economics. 2006.
3. Mars, G. The Impact of International Standards on Business Ethics and Export Opportunities // Business Ethics Quarterly. 2000.
4. Wittman, R. H. The Impact of International Standards on Trade: A Study of Export Performance // Global Trade and Policy. 2008.
5. Vogel, D. The Influence of International Standards on Global Trade and Export Success // European Journal of International Business. 2009.
6. Oqboyev, A. Tadbirkorlik subyektlarida xalqaro sifat standartlarini joriy etish tahlili. 2024.



7. Rasuljanovich, O. A. Existing problems in innovative development of Namangan region and their solutions // Conferencea. 2023. C. 19–24.